

YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI

ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК

REVIEW OF LAW SCIENCES

huquqiy ilmiy-amaliy jurnal

правовой научно-практический журнал

legal scientific-practical journal

2025-yil 2-son

VOLUME 9 / ISSUE 2 / 2025

DOI: 10.51788/TSUL.ROLS.2025.9.2.

ISSN 2181-919X

E-ISSN 2181-1148

DOI: 10.51788/TSUL.ROLS



Crossref
Content
Registration

MUASSIS: TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

“Yuridik fanlar axborotnomasi – Вестник юридических наук – Review of law sciences” huquqiy ilmiy-amaliy jurnali O‘zbekiston matbuot va axborot agentligi tomonidan 2020-yil 22-dekabrda 0931-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan.

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi jurnallari ro‘yxatiga kiritilgan.

Mualliflik huquqlari Toshkent davlat yuridik universitetiga tegishli. Barcha huquqlar himoyalangan. Jurnal materiallaridan foydalanish, tarqatish va ko‘paytirish muassis ruxsati bilan amalga oshiriladi.

Sotuvda kelishilgan narxda.

Nashr bo‘yicha mas‘ul:

O. Choriyev

Muharrirlar:

Y. Yarmolik, Y. Mahmudov,
E. Mustafayev, K. Abduvaliyeva,
F. Muhammadiyeva, M. Sharifova,
Sh. Beknazarova

Musahhih:

S. Rasulova

Texnik muharrir:

U. Sapayev

Dizayner:

D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahar,
Sayilgoh ko‘chasi, 35.
Tel.: (0371) 233-66-36 (1169)

Veb-sayt: review.tsul.uz

E-mail: reviewjournal@tsul.uz

Obuna indeksi: 1385.

Nashriyot litsenziyasi

№ 174625, 29.11.2023-y.

Jurnal 2025-yil 26-iyunda
bosmaxonaga topshirildi.
Qog‘oz bichimi: A4.
Shartli bosma tabog‘i: 5
Adadi: 100. Buyurtma: № 116.

Bosmaxona litsenziyasi

29.11.2023 № 174626

TDYU bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili:
100047. Toshkent shahri,
Sayilgoh ko‘chasi, 37.

© Toshkent davlat yuridik universiteti

BOSH MUHARRIR

I. Rustambekov – Toshkent davlat yuridik universiteti rektori v.v.b., yuridik fanlar doktori, professor

BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARI

B. Xodjayev – Toshkent davlat yuridik universiteti ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori, yuridik fanlar doktori, professor

MAS‘UL MUHARRIR

O. Choriyev – Toshkent davlat yuridik universiteti Tahririy-nashriyot bo‘limi boshlig‘i

TAHRIR HAY‘ATI A‘ZOLARI

A. Saidov – Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazining direktori, yuridik fanlar doktori, professor (Toshkent, O‘zbekiston)

E. Juchniewicz – Gdansk universiteti professori, huquq doktori (Gdansk, Polsha)

A. Younas – yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (Pekin, Xitoy)

O. Okyulov – Toshkent davlat yuridik universiteti professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

J. Nematov – Toshkent davlat yuridik universiteti professori v.b., yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

Sh. Asadov – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

M. Aminjonova – O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi dotsenti, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

M. Rahimov – Toshkent davlat yuridik universiteti dotsenti, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

O. Narzullayev – Toshkent davlat yuridik universiteti professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

B. Murodov – O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi akademiyasi professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

A. Muxamedjanov – Toshkent davlat yuridik universiteti professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

N. Niyazova – Toshkent davlat yuridik universiteti professori v.b., pedagogika fanlari nomzodi (Toshkent, O‘zbekiston)

**УЧРЕДИТЕЛЬ: ТАШКЕНТСКИЙ
ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ЮРИДИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ**

Правовой научно-практический журнал «Вестник юридических наук – Yuridik fanlar axborotnomasi – Review of Law Sciences» зарегистрирован Агентством печати и информации Узбекистана 22 декабря 2020 года с удостоверением № 0931.

Журнал включён в перечень журналов Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан.

Авторские права принадлежат Ташкентскому государственному юридическому университету. Все права защищены. Использование, распространение и воспроизведение материалов журнала осуществляется с разрешения учредителя.

Реализуется по договорной цене.

Ответственный за выпуск:
О. Чориев

Редакторы:

Е. Ярмолик, Й. Махмудов,
Э. Мустафаев, К. Абдувалиева,
Ф. Мухаммадиева, М. Шарифова,
Ш. Бекназарова

Корректор:

С. Расулова

Технический редактор:

У. Сапаев

Дизайнер:

Д. Ражапов

Адрес редакции:

100047. Город Ташкент,
улица Сайилгох, 35.
Тел.: (0371) 233-66-36 (1169)

Веб-сайт: review.tsul.uz

E-mail: reviewjournal@tsul.uz

Подписной индекс: 1385.

Издательская лицензия

от 29.11.2023 № 174625.

Журнал передан в типографию
26.06.2025.

Формат бумаги: А4.

Усл. п. л. 5. Тираж: 100 экз.

Номер заказа: 116.

Лицензия типографии

от 29.11.2023. № 174626

Отпечатано в типографии

Ташкентского государственного
юридического университета.

100047, г. Ташкент, ул. Сайилгох, дом 37.

© Ташкентский государственный
юридический университет

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР

И. Рустамбеков – доктор юридических наук, профессор, врио ректора Ташкентского государственного юридического университета

ЗАМЕСТИТЕЛЬ ГЛАВНОГО РЕДАКТОРА

В. Ходжаев – доктор юридических наук, профессор, проректор по научной работе и инновациям Ташкентского государственного юридического университета

ОТВЕТСТВЕННЫЙ РЕДАКТОР

О. Чориев – начальник редакционно-издательского отдела Ташкентского государственного юридического университета

ЧЛЕНЫ РЕДКОЛЛЕГИИ

А. Саидов – доктор юридических наук, профессор, директор Национального центра по правам человека Республики Узбекистан (Ташкент, Узбекистан)

Э. Юхневич – доктор права, профессор Гданьского университета (Гданьск, Польша)

А. Юнас – доктор философии по юридическим наукам (Пекин, Китай)

О. Окюлов – доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

Ж. Нематов – доктор юридических наук, и. о. профессора Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

Ш. Асадов – доктор юридических наук, профессор Академии государственного управления при Президенте Республики Узбекистан (Ташкент, Узбекистан)

М. Аминжонов – доктор юридических наук, доцент Правоохранительной академии Республики Узбекистан (Ташкент, Узбекистан)

М. Рахимов – доктор философии по юридическим наукам, доцент Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

О. Нарзуллаев – доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

В. Муродов – доктор юридических наук, профессор Академии МВД Республики Узбекистан (Ташкент, Узбекистан)

А. Мухамеджанов – доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

Н. Ниязова – кандидат педагогических наук, и. о. профессора Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

**FOUNDER: TASHKENT STATE
UNIVERSITY OF LAW**

“Yuridik fanlar axborotnomasi – Вестник юридических наук – Review of law sciences” legal scientific-practical journal was registered by Press and Information Agency of Uzbekistan on December 22, 2020, with certificate number 0931.

The journal is included in the list of journals of the Higher Attestation Commission under the Ministry of Higher Education, Science and Innovations of the Republic of Uzbekistan. Copyright belongs to Tashkent State University of Law. All rights reserved. Use, distribution and reproduction of materials of the journal are carried out with the permission of the founder.

Agreed-upon price.

Publication Officer:

O. Choriev

Editors:

Y. Yarmolik, Y. Makhmudov,
E. Mustafaev, K. Abduvalieva,
F. Mukhammadieva, M. Sharifova,
Sh. Beknazarova

Proofreader:

S. Rasulova

Technical editor:

U. Sapaev

Designer:

D. Rajapov

Publishing department address:

100047. Tashkent city,
Sayilgokh street, 35.
Phone: (0371) 233-66-36 (1169)

Website: review.tsul.uz

E-mail: reviewjournal@tsul.uz

Subscription index: 1385.

Publishing license

№ 174625, 29.11.2023.

The journal is submitted to the Printing house on 26.06.2025.

Paper size: A4.

Cond.p.f: 5.

Units: 100. Order: № 116.

Printing house license

№ 174626, 29.11.2023.

Published in the Printing house of
Tashkent State University of Law.
100047. Tashkent city, Sayilgokh street, 37.

© Tashkent State University of Law

EDITOR-IN-CHIEF

I. Rustambekov – Acting Rector of Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Professor

DEPUTY EDITOR

B. Xodjaev – Deputy Rector for Scientific Affairs and Innovations of Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Professor

EXECUTIVE EDITOR

O. Choriev – Head of the Publishing Department of Tashkent State University of Law

MEMBERS OF EDITORIAL BOARD

A. Saidov – Director of the National Centre for Human Rights of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law, Professor (Tashkent, Uzbekistan)

E. Juchniewicz – Professor of the University of Gdansk, Doctor of Law (Gdansk, Poland)

A. Younas – Doctor of Philosophy (PhD) in Law (Beijing, China)

O. Okyulov – Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

J. Nematov – Acting Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

Sh. Asadov – Professor of the Academy of Public Administration under the President of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

M. Aminjonova – Associate Professor of the Law Enforcement Academy of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

M. Rakhimov – Associate Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy (PhD) in Law (Tashkent, Uzbekistan)

O. Narzullaev – Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

B. Murodov – Professor of the Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

A. Muxamedjanov – Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

N. Niyazova – Acting Professor of Tashkent State University of Law, Candidate of Pedagogical Sciences (Tashkent, Uzbekistan)

MUNDARIJA

12.00.01 – DAVLAT VA HUQUQ NAZARIYASI VA TARIXI. HUQUQIY TA'LIMOTLAR TARIXI

- 8 **MUXITDINOVA FIRYUZA ABDURASHIDOVNA**
Yangi O'zbekistonda huquqiy madaniyatni shakllantirishning zamonaviy yondashuvlari

12.00.02 – KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ. MA'MURIY HUQUQ. MOLIYA VA BOJXONA HUQUQI

- 23 **RAXIMOV DILMURODJON G'ULOMJON O'G'LI**
Davlat xizmati instituti: tushunchasi, mohiyati va shakllanishi
- 35 **XOLIQOV SARVAR MINGISHOVICH**
Qurolli kuchlar harbiy xizmatchilarini uy-joy bilan ta'minlashning dolzarb masalalari: O'zbekiston va xalqaro tajriba
- 41 **USMONOV OTABEK ODILBEK O'G'LI**
Jamoatchilik nazoratini tashkiliy jihatdan raqamlashtirish va uning oldida turgan dolzarb muammolar
- 57 **ISMAILOV BEKJON SALIHOVICH**
Nogironligi bo'lgan shaxslar huquqiy maqomi konsepsiyasi: huquqiy tahlili
- 65 **TULYAKOV ELDOR**
Korrupsiyaga qarshi kurashishda tahlil markazlarining roli: siyosatni tahlil qilishdan nazoratgacha

12.00.03 – FUQAROLIK HUQUQI. TADBIRKORLIK HUQUQI. OILA HUQUQI. XALQARO XUSUSIY HUQUQ

- 73 **RUZINAZAROV SHUXRAT NURALIYEVICH**
Elektron tijorat va logistika: huquqiy ta'minot masalalari
- 86 **NARZIYEV OTABEK SA'DIYEVICH, NABIRAYEVA ZARNIGOR AKMALOVNA**
Xitoyda sun'iy intellekt va robot-maslahatchilar: tartibga solish xususiyatlari hamda o'ziga xos jihatlari
- 97 **MAHMUDXODJAYEVA UMIDA MUMINOVNA**
Voyaga yetmaganga yetkazilgan zarar uchun javobgarlikning fuqarolik huquqiy masalalari
- 109 **INOYATOV NODIRBEK HAYITBOY O'G'LI**
"Vital" va "Sophiya" robotlari – raqamli davrda yangi huquq subyektlari sifatida

12.00.04 – FUQAROLIK PROTSESSUAL HUQUQI. IQTISODIY PROTSESSUAL HUQUQI. HAKAMLIK JARAYONI VA MEDIATSIYA

- 117 **ABDUSAMADOV DILMUROD FARXOD O'G'LI**
Iqtisodiy sud ishlarini yuritish prinsiplari: odil sudlovning faqat sud tomonidan amalga oshirilishi

12.00.09 – JINOYAT PROTSESSI. KRIMINALISTIKA, TEZKOR-QIDIRUV HUQUQ VA SUD EKSPERTIZASI

- 127 **IBADOVA ANJELIKA ISMATULLOYEVNA**
Tan jarohatlari yetkazish jinoyatlarini tergov qilishda maxsus bilimlardan foydalanishning ahamiyati

12.00.10 – XALQARO HUQUQ

- 137 **GAFUROVA NOZIMAXON ELDAROVNA, RAYIMOVA MUNISA NOZIM QIZI**
Sog'liqqa bo'lgan huquqning tamaki chekishga qarshi kurashishdagi roli: O'zbekiston va Avstraliyaning qiyosiy tajribasi

12.00.14 – HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTIKASI. JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH. PROBATSIIYA FAOLIYATI

- 148 **XO'JAMBERDIYEV FARRUX KOMILOVICH, ABDUSAMATOVA ZARINA HASAN QIZI**
Fransuz jandarmeriya modeli jamoat xavfsizligi tizimining etaloni sifatida

СОДЕРЖАНИЕ

12.00.01 – ТЕОРИЯ И ИСТОРИЯ ГОСУДАРСТВА И ПРАВА. ИСТОРИЯ ПРАВОВЫХ УЧЕНИЙ

8 МУХИТДИНОВА ФИРЮЗА АБДУРАШИДОВНА

Современные подходы к формированию правовой культуры в Новом Узбекистане

12.00.02 – КОНСТИТУЦИОННОЕ ПРАВО. АДМИНИСТРАТИВНОЕ ПРАВО. ФИНАНСОВОЕ И ТАМОЖЕННОЕ ПРАВО

23 РАХИМОВ ДИЛМУРОДЖОН ГУЛОМЖОН УГЛИ

Институт государственной службы: понятие, сущность и формирование

35 ХОЛИКОВ САРВАР МИНГИШОВИЧ

Актуальные вопросы обеспечения жильём военнослужащих Вооружённых Сил: опыт Узбекистана и зарубежных стран

41 УСМАНОВ ОТАБЕК ОДИЛБЕК УГЛИ

Организационная цифровизация общественного контроля и её актуальные проблемы

57 ИСМАИЛОВ БЕКЖОН САЛИХОВИЧ

Концепция правового статуса лиц с инвалидностью: правовой анализ

65 ТУЛЯКОВ ЭЛЬДОР

Роль экспертно-аналитических центров в борьбе с коррупцией: от анализа политики до контроля

12.00.03 – ГРАЖДАНСКОЕ ПРАВО. ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЕ ПРАВО. СЕМЕЙНОЕ ПРАВО. МЕЖДУНАРОДНОЕ ЧАСТНОЕ ПРАВО

73 РУЗИНАЗАРОВ ШУХРАТ НУРАЛИЕВИЧ

Электронная коммерция и логистика: вопросы правового обеспечения

87 НАРЗИЕВ ОТАБЕК САЪДИЕВИЧ, НАБИРАЕВА ЗАРНИГОР АКМАЛОВНА

Искусственный интеллект и роботы-консультанты в Китае: характеристика и особенности регулирования

97 МАХМУДХОДЖАЕВА УМИДА МУМИНОВНА

Гражданско-правовые вопросы ответственности за вред, причинённый несовершеннолетнему

109 ИНОЯТОВ НОДИРБЕК ХАЙТБОЙ УГЛИ

Роботы Vital и Sophia как новые субъекты права в цифровую эпоху

12.00.04 – ГРАЖДАНСКОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО. ЭКОНОМИЧЕСКОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО. АРБИТРАЖ И МЕДИАЦИЯ

117 АБДУСАМАНОВ ДИЛМУРОД ФАРХОД УГЛИ

Принципы ведения экономических судебных дел: осуществление правосудия исключительно судом

12.00.09 – УГОЛОВНЫЙ ПРОЦЕСС. КРИМИНАЛИСТИКА. ОПЕРАТИВНО-РОЗЫСКОЕ ПРАВО. СУДЕБНАЯ ЭКСПЕРТИЗА

127 ИБАДОВА АНЖЕЛИКА ИСМАТУЛЛОЕВНА

Значение использования специальных знаний при расследовании преступлений, связанных с причинением телесных повреждений

12.00.10 – МЕЖДУНАРОДНОЕ ПРАВО

137 ГАФУРОВА НОЗИМАХОН ЭЛЬДАРОВНА, РАЙИМОВА МУНИСА НОЗИМ КИЗИ

Роль права на здоровье в борьбе против табакокурения: сравнительный анализ опыта Узбекистана и Австралии

12.00.14 – ПРЕДУПРЕЖДЕНИЕ ПРЕСТУПНОСТИ. ОБЕСПЕЧЕНИЕ ОБЩЕСТВЕННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ. ПРОБАЦИОННАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ

148 ХУЖАМБЕРДИЕВ ФАРРУХ КОМИЛОВИЧ, АБДУСАМАНОВА ЗАРИНА ХАСАН КИЗИ

Французская модель жандармерии как эталон системы общественной безопасности

CONTENTS

12.00.01 – THEORY AND HISTORY OF STATE AND LAW. HISTORY OF LEGAL DOCTRINES

- 8 **MUKHITDINOVA FIRYUZA ABDURASHIDOVNA**
Modern approaches to the formation of legal culture in New Uzbekistan

12.00.02 – CONSTITUTIONAL LAW. ADMINISTRATIVE LAW. FINANCIAL AND CUSTOMS LAW

- 23 **RAKHIMOV DILMURODJON GULOMJON UGLI**
Public service institution: concept, essence and formation
- 35 **KHOLIKOV SARVAR MINGISHOVICH**
Current issues of providing housing for armed forces personnel: Uzbekistan and international experience
- 41 **USMANOV OTABEK ODILBEK UGLI**
Digitalization of the organizational aspects of public oversight and the pressing challenges it faces
- 57 **ISMAILOV BEKJON SALIHOVICH**
The concept of the legal status of persons with disabilities: legal analysis
- 65 **TULYAKOV ELDOR**
The role of think tanks in combating corruption: from policy analysis to oversight

12.00.03 – CIVIL LAW. BUSINESS LAW. FAMILY LAW. INTERNATIONAL PRIVATE LAW

- 73 **RUZINAZAROV SHUKHRAT NURALIYEVICH**
E-commerce and logistics: legal support issues
- 86 **NARZIEV OTABEK SA'DIEVICH, NABIRAYEVA ZARNIGOR AKMALOVNA**
Artificial intelligence and robo-advisors in China: characteristics and features of regulation
- 97 **MAHMUDKHODJAEVA UMIDA MUMINOVNA**
Civil law issues of liability for damage caused to a minor
- 109 **INOYATOV NODIRBEK HAYITBOY UGLI**
Vital and Sophia robots as new legal subjects in the digital age

12.00.04 – CIVIL PROCEDURAL LAW. ECONOMIC PROCEDURAL LAW. ARBITRATION PROCESS AND MEDIATION

- 117 **ABDUSAMADOV DILMUROD FARKHOD UGLI**
Principles of conducting economic court cases: justice is administered solely by the court

12.00.09 – CRIMINAL PROCEEDINGS. FORENSICS, INVESTIGATIVE LAW AND FORENSIC EXPERTISE

- 127 **IBADOVA ANGELIKA ISMATULLOYEVNA**
Importance of using special knowledge in investigating crimes involving bodily injuries

12.00.10 – INTERNATIONAL LAW

- 137 **GAFUROVA NOZIMAKHON ELDAROVNA, RAYIMOVA MUNISA NOZIM KIZI**
The role of the right to health in the fight against tobacco smoking: comparative analysis of the experience of Uzbekistan and Australia

12.00.14 – CRIME PREVENTION. ENSURING PUBLIC SAFETY. PROBATION ACTIVITY

- 148 **KHUJAMBERDIEV FARRUKH KOMILOVICH, ABDUSAMATOVA ZARINA KHASAN KIZI**
The french model of gendarmerie as a standard of public security system

Kelib tushgan / Получено / Received: 10.04.2025
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 16.06.2025
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 26.06.2025

DOI: 10.51788/tsul.rols.2025.9.2./UGIO1061

UDC: 347.122:004.8(045)(575.1)

“VITAL” VA “SOPHIYA” ROBOTLARI – RAQAMLI DAVRDA YANGI HUQUQ SUBYEKTLARI SIFATIDA

Inoyatov Nodirbek Hayitboy o'g'li,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Kiberhuquq kafedrası o'qituvchisi
ORCID: 0009-0004-2958-203X
e-mail: Nodir_Inoyatov@tsul.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada raqamli texnologiyalar davrida huquq subyektlari doirasini kengaytirish, xususan, robotlarni subyekt sifatida e'tirof etish imkoniyatlari tahlil qilingan. “Vital” va “Sophia” kabi ilg'or robotlar misolida sun'iy intellektga ega tizimlarning yuridik maqomi muammosi o'rganilgan. Tadqiqot aralash metodologiyaga asoslangan bo'lib, ilmiy adabiyotlar sharhi, hujjatlarni tahlil qilish va qiyosiy-huquqiy yondashuvlardan foydalanilgan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, zamonaviy robotlar texnologik jihatdan ilg'or bo'lishiga qaramasdan, huquqiy subyekt maqomiga ega bo'lish uchun zarur huquq va majburiyatlarni anglash hamda bajarish qobiliyatiga ega emas. “Vital” va “Sophia” bilan bog'liq voqealar, asosan, marketing va ommaviy axborot vositalariga qaratilgan harakatlar bo'lib, ularning huquqiy subyektligi mavjudligini anglatmaydi. Milliy va xalqaro miqyosda robotlarning huquqiy maqomiga doir turli yondashuvlar shakllanmoqda, biroq ular ko'pincha axloqiy tamoyillar va xavfsizlik standartlariga tayanadi. Kelgusida sun'iy intellektning rivojlanishi bilan robotlarga oid huquqiy tartibotlar ishlab chiqish uchun yangi paradigmalar va alohida huquqiy rejimlar zarur bo'lishi mumkin. Tadqiqot natijalari robotlar va sun'iy intellekt tizimlari bilan bog'liq huquqiy munosabatlar, javobgarlik masalalari va tartibga solish mexanizmlarini shakllantirishda amaliy qo'llanishi mumkin.

Kalit so'zlar: robotlar huquqi, yuridik shaxs maqomi, sun'iy intellekt, “Vital”, “Sophia”, robot javobgarligi, huquq subyekti

РОБОТЫ VITAL И SOPHIA КАК НОВЫЕ СУБЪЕКТЫ ПРАВА В ЦИФРОВУЮ ЭПОХУ

Иноятлов Нодирбек Хаитбой угли,
преподаватель кафедры «Киберправо»
Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В статье рассматриваются возможности расширения круга субъектов права в условиях цифровых технологий, в частности признание роботов субъектами права. На примере передовых роботов Vital и Sophia анализируется проблема правового статуса систем, обладающих искусственным интеллектом. Исследование основано на смешанной методологии, включающей обзор научной литературы, анализ документов и сравнительно-правовой подход. Результаты показывают, что несмотря на высокий уровень технологического развития современных роботов, они не обладают способностью осознавать и исполнять права и обязанности, необходимой для признания их полноценными субъектами права. Случаи,

связанные с Vital и Sophia, преимущественно направлены на маркетинг и медийный эффект, а не на признание их правосубъектности. На национальном и международном уровнях формируются различные подходы к правовому статусу роботов, однако они в основном опираются на этические принципы и стандарты безопасности. В перспективе, по мере развития искусственного интеллекта, может возникнуть необходимость в формировании новых парадигм и отдельных правовых режимов для регулирования правовых отношений с участием роботов. Результаты данного исследования могут быть использованы на практике при разработке механизмов регулирования, определения ответственности и правового статуса роботов и систем с искусственным интеллектом.

Ключевые слова: право роботов, правовой статус, искусственный интеллект, Vital, Sophia, ответственность роботов, субъект права

VITAL AND SOPHIA ROBOTS AS NEW LEGAL SUBJECTS IN THE DIGITAL AGE

Inoyatov Nodirbek Hayitboy ugli,

Lecturer of the Department of Cyber Law,
Tashkent State University of Law

Abstract. This article analyzes the possibilities of expanding the range of legal subjects in the era of digital technologies, in particular, recognizing robots as subjects. The problem of the legal status of systems with artificial intelligence was studied using the example of advanced robots such as Vital and Sophia. The research was based on a mixed methodology, using a review of scientific literature, analysis of documents, and comparative legal approaches. The results show that modern robots, despite being technologically advanced, do not have the ability to understand and fulfill the rights and obligations necessary for obtaining the status of a legal entity. Events related to Vital and Sophia are mainly actions aimed at marketing and mass media, which does not mean the existence of their legal subjectivity. Different approaches to the legal status of robots are being formed at the national and international levels, but they often rely on ethical principles and safety standards. In the future, with the development of artificial intelligence, new paradigms and separate legal regimes may be necessary for the development of legal procedures related to robots. The research results can be applied in the formation of legal relations, issues of responsibility, and regulatory mechanisms related to robots and artificial intelligence systems.

Keywords: robot rights, legal personhood, artificial intelligence, Vital, Sophia, robot liability, subject of law

Kirish

Raqamli texnologiyalar davrida sun'iy intellekt (SI) va robotlarning jamiyatdagi o'rnini tobora kengayib bormoqda. 2014-yilda investitsiya kompaniyasi Deep Knowledge Ventures direktorlar kengashiga Vital nomli robot tayinlanishi va 2017-yilda Saudiya Arabistoni tomonidan Sophia robotiga fuqarolik berilishi kabi voqealar dunyoda katta shov-shuvlarga sabab bo'ldi. Bu hodisalar robotlarning huquqiy maqomi va ularga huquq subyekti maqomini berish masalasini yanada dolzarblashtirdi. Robotlar mustaqil qaror

qabul qilish qobiliyatlariga ega bo'lib, inson ishtirokisiz funksiyalarni bajarish va muhitga moslashish imkoniyatlari kengayib bormoqda [1]. Bu esa robotlarning huquqiy maqomi, javobgarlik chegaralari va ularning huquq subyekti sifatida tan olinishi masalalarini keltirib chiqarmoqda.

Huquq subyekti tushunchasi tarixan insonlar (jismoniy shaxslar) va ularning birlashmalari (yuridik shaxslar) uchun qo'llangan bo'lib, bugungi kunda uning robotlarga nisbatan ishlatilishi mumkinligi muhokama qilinmoqda. Subyektlik maqomi o'z ichiga

huquq va majburiyatlarga ega bo'lish, mulkiy huquqlarni amalga oshirish, shartnomalar tuzish va sud jarayonlarida ishtirok etish kabi imkoniyatlarni qamrab oladi [2]. Biroq robotlarga bunday maqomni berish ma'lum texnik, huquqiy va axloqiy masalalarni keltirib chiqaradi.

Ushbu maqolaning asosiy maqsadi *Vital* va *Sophia* kabi ilg'or robotlar misolida sun'iy intellektga ega qurilmalarga huquqiy shaxs maqomini berish imkoniyatlari va muammolarini tahlil qilishdir. Tadqiqot doirasida quyidagi muhim savollar o'rganildi. Birinchidan, humanoid robotlarga huquqiy maqom berish mumkinmi? Ikkinchidan, *Vital* va *Sophia* misolida robotlar mustaqil subyekti bo'la oladimi? Uchinchidan, robot huquqlari nazariyasi va uning amaliy qo'llanishi qanday? To'rtinchidan, raqamli texnologiyalar davrida robotlarning huquqiy maqomi yuzasidan xalqaro va milliy miqyosdagi yondashuvlar qanday? Beshinchidan, kelajakda robotlarning huquqiy maqomini tartibga solishning istiqbollari qanday?

Robotlarga huquqiy maqom berish masalasi faqatgina nazariy masala emas, balki insonlar, biznes va davlatlar o'rtasidagi huquqiy munosabatlar, javobgarlik chegaralarining aniqlanishi va texnologik taraqqiyotning axloqiy me'yorlari uchun ham muhim ahamiyatga ega. Pagallo ta'kidlaganidek, agar robotlar, haqiqatan ham, insonga xos bo'lgan qaror qabul qilish, o'rganish va mustaqil harakat qilish qobiliyatlariga ega bo'lsa, huquqiy tizimlar ularning mavjudligi va ular yuzaga keltiradigan huquqiy muammolarni tan olishi lozim [3].

Material va metodlar

Ushbu tadqiqotda mavzuni har tomonlama o'rganish uchun aralash metodologiya qo'llandi. Birinchidan, maqola huquqiy shaxs maqomi, robot huquqlari va sun'iy intellektga oid ilmiy adabiyotlar tahlilini o'z ichiga oldi. Bu jarayonda yuridik, falsafiy, axloqiy va texnologik nuqtayi nazardan yondashuvlar o'rganildi. Ikkinchidan, *Vital* va *Sophia* kabi

ilg'or robotlar bilan bog'liq voqealar va qarorlar tahlil qilindi. Uchinchidan, turli mamlakatlar qonunchiligi hamda xalqaro huquqiy hujjatlarning robotlar va sun'iy intellektga nisbatan yondashuvlari ko'rib chiqildi.

Adabiyotlar tahlili doirasida huquq subyekting tarixiy taraqqiyoti, zamonaviy talqini va uni robotlarga nisbatan qo'llash imkoniyatlari tadqiq etildi. Bu jarayonda Solaiman [2], Pagallo [1], [3], Bryson [4] kabi tadqiqotchilarning ishlari o'rganildi. Qiyosiy tahlil asosida yuridik shaxslar va hayvonlarga huquqiy shaxs maqomini berish masalalari robotlarga nisbatan tahlil qilindi.

Vital robotining Deep Knowledge Ventures direktorlar kengashiga tayinlanishi va *Sophia* robotiga Saudiya Arabistoni tomonidan fuqarolik berilishi hodisalari hujjatlar tahlili hamda media manbalari orqali o'rganildi. Bu jarayonda Parviainen va Coeckelberghning "The political choreography of the Sophia robot" nomli tadqiqoti muhim manba sifatida xizmat qildi [5].

Qonunchilik va huquqiy hujjatlar tahlili orqali Yevropa Ittifoqi, AQSh, Yaponiya, Janubiy Koreya va boshqa mamlakatlarning sun'iy intellekt hamda robotlarga nisbatan me'yoriy-huquqiy bazasi o'rganildi. Xususan, Yevropa Parlamentining 2017-yildagi "Civil Law Rules on Robotics" rezolutsiyasi, AQSh Mudofaa vazirligi tomonidan qabul qilingan "Harbiy robotlarga oid qonun" kabi hujjatlar tahlil qilindi.

Tadqiqot uchun ma'lumotlar to'plashda ilmiy bazalar, huquqiy ma'lumotlar platformalari, rasmiy davlat hujjatlari hamda texnologiya kompaniyalari va xalqaro tashkilotlar hisobotlaridan foydalanildi. Ma'lumotlar tahlili uchun kontekstual, mazmuniy va qiyosiy analiz usullari qo'llandi. Bundan tashqari, hodisalarga asoslangan (case-based) yondashuv orqali *Vital* va *Sophia* kabi robotlar bilan bog'liq aniq misollar o'rganildi.

Tadqiqot jarayonida robotlarga huquq subyekti maqomini berish tarafdorlari va qarshi fikrdagi olimlarning argumentlari xoli-

sona tahlil qilindi. Robot huquqlari nazariyasi va amaliyotiga oid turli nuqtayi nazarlar o'rganildi va ularning kuchli hamda zaif tomonlari aniqlandi.

Tadqiqot natijalari

Tadqiqot natijalariga ko'ra, subyektlik maqomi va uning robotlarga nisbatan qo'llanishi ikkita muhim huquq va majburiyatlar xususiyatiga ega bo'ladi. Shuningdek, Solaiman ta'kidlaganidek, shaxs huquq subyekti bo'lib, u muayyan huquqlardan foydalanishi va o'z majburiyatlarini anglashi hamda bajarishi kerak. Klassik ta'rifga ko'ra, subyekt o'z harakatlarini anglash, qarorlar qabul qilish va ushbu qarorlar uchun javobgar bo'lish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim [2]. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 2-moddasiga binoan, "Fuqarolar yuridik shaxslar va davlat fuqarolik qonunchiligi bilan tartibga solinadigan munosabatlarning ishtirokchilari bo'ladilar".

Tadqiqot natijalariga ko'ra, amaliyotda subyektlik maqomini turli xil tashkilotlarga berish tajribasi mavjud. Bunday tashkilotlar qatoriga yuridik shaxslar, jumladan, korporatsiyalar, nodavlat notijorat tashkilotlar, diniy tashkilotlar, hattoki ayrim mamlakatlarda tabiat obyektlari ham kiradi (masalan, Yangi Zelandiyada Whanganui daryosi). Biroq bunday subyektlik maqomining asosi sifatida doimo inson ongi va qaror qabul qilish qobiliyati yotadi. Ya'ni bu kabi subyektlar ortida ularni boshqaradigan va ularning nomidan qarorlar qabul qiladigan insonlar mavjud bo'ladi.

2014-yilda Gonkongda joylashgan Deep Knowledge Ventures investitsiya kompaniyasi tomonidan Vital nomli sun'iy intellekt tizimi direktorlar kengashiga "ovoz berish huquqiga ega a'zo" sifatida tayinlangan. Bu holat robotga go'yoki Kengashning boshqa a'zolari kabi huquqiy munosabatlarga kirish imkonini berayotgandek ko'rinsa-da, amalda bu faqat tashqi ko'rinishda shunday talqin etilgan. Tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, ushbu qaror, asosan, media e'tiborini jalb qilish va kompaniya brendini ommalashtirish-

ga qaratilgan marketing strategiyasi bo'lgan. Aslida esa *Vital* sun'iy intellekt dasturi bo'lib, uning asosiy vazifasi investitsiya qarorlarini qabul qilish jarayonida ma'lumotlarni tahlil qilish va maslahat berishdan iborat bo'lgan. Unga hech qanday huquqiy subyektlik maqomi berilmagan va u yuridik shaxslar kabi mustaqil huquqiy javobgarlikka ega emas.

Sophia robotiga 2017-yilda Saudiya Arabistoni tomonidan fuqarolik berilgani e'lon qilingan edi. Biroq Parviainen va Coeckelbergh tadqiqotlariga ko'ra, bu hodisa, asosan, "siyosiy xoreografiya" sifatida baholanishi lozim bo'lib, u ko'proq ommaviy axborot vositalarining e'tiborini jalb etish va sun'iy intellekt mavzusini ommalashtirishga qaratilgan harakat bo'lgan. Amalda esa *Sophia* fuqarolikning asosiy huquq va majburiyatlariga ega emas. Uning funksiyalari oldindan dasturlangan javoblar va harakatlarga asoslangan bo'lib, u na haqiqiy ongga, na mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatiga ega.

Jaynes ham *Sophia*'ga berilgan fuqarolikni huquqiy asosdan ko'ra siyosiy performans sifatida talqin qiladi. U subyektlik maqomini berish uchun zarur bo'lgan axloqiy va yuridik asoslar mavjud emasligini ta'kidlaydi [6].

Texnologik nuqtayi nazardan, *Vital* va *Sophia* kabi robotlar hali o'zlarining huquqiy majburiyatlarini anglash va mustaqil ravishda bajarish qobiliyatiga ega emas. Ular, asosan, insonlar tomonidan dasturlangan algoritmlar asosida ishlaydi va ularning "qarorlari", ma'lumotlar tahlili va oldindan belgilangan parametrlarga asoslanadi.

Robotlarga huquqiy maqom berish nazariyasini qo'llab-quvvatlovchilar va unga qarshi chiquvchilar o'rtasida kuchli bahslar mavjud. Pagallo singari ba'zi tadqiqotchilar robotlarning amaliy maqsadlar uchun cheklangan subyekt maqomga ega bo'lishi mumkinligini ta'kidlaydi. Ular bunga misol sifatida dastavval subyekt maqomi mavjud bo'lmagan, hozirgi kunda subyekt hisoblangan yuridik shaxslarni misol qilib ko'rsatishadi [3].

Biroq Bryson va boshqalar ta'kidlaganidek, robotlarga huquq subyekti berish "qonuniy bo'shliq" yaratishi, insonga xos huquq va majburiyatlarni sun'iy yaratilgan narsalarga o'tkazish bilan bog'liq xavflarni keltirib chiqarishi mumkin [4]. Solaiman esa robotlar hali huquq subyekti sifatida tan olinish uchun zarur bo'lgan huquq va majburiyatlarni anglash hamda bajarish qobiliyatiga ega emasligini ta'kidlaydi [2]. Kurki bu yondashuvga muqobil sifatida robotlarga to'liq subyektlik emas, balki ularning ayrim huquqiy atributlar majmuasiga ega bo'lishini taklif etadi. U "Bundle Theory" orqali subyektlikni bo'lakli va vazifaga qarab moslashuvchan deb tushuntiradi [7]. Marshall esa hozirgi sharoitda SI'ni subyekt sifatida tan olish hech qanday asosga ega emasligini ta'kidlaydi. U bunday maqomlar orqali robot yaratuvchilarining javobgarlikdan qochishiga zamin yaratilishi haqida ogohlantiradi [8].

Amaliy nuqtayi nazardan, hozirgi kunda robotlar, asosan, mulk yoki mahsulot sifatida huquqiy maqomga ega bo'lib, ularning harakatlari uchun javobgarlik ularni ishlab chiqaruvchilar, dasturlovchilar yoki foydalanuvchilarga yuklatiladi. Misol uchun, AQSh Mudofaa vazirligi o'zining "Harbiy robotlarga oid qonun"ida huquq burchlari qurol tizimlariga emas, balki insonlarga yuklatiladi, deb ta'kidlagan.

Robotlarning huquqiy maqomiga nisbatan turli mamlakatlarda turlicha yondashuvlar shakllanmoqda. Yevropa Ittifoqi bu borada eng faol bo'lib, 2017-yilda Yevropa Parlamenti "Civil Law Rules on Robotics" rezolutsiyasini qabul qildi. Ushbu hujjatda robotlarga "elektron shaxs" maqomini berish masalasi ko'rib chiqilgan, biroq bu hozircha tavsiya xarakteriga ega. Negri esa bunday yondashuvni tanqid qilib, robotlarga "elektron shaxs" maqomini berish antropomorfik noto'g'ri talqindan kelib chiqishini aytadi. Unga ko'ra, bu huquqiy metafora robotlar haqidagi real imkoniyatlarni noto'g'ri ifodalaydi [9]. Ayniqsa, inson shakliga o'xshash tashqi ko'rinishdagi

robotlar (masalan, *Sophia*) haqida shakllangan ijtimoiy taassurotlar ularning texnologik cheklanganligiga zid tarzda, noto'g'ri huquqiy kutilmalarni yuzaga keltiradi. Subyekt maqomi berilishidan oldin robotlarning real funksiyalari, avtonom qaror qabul qilish darajasi va axloqiy agentlik salohiyati huquqiy mezonlar asosida chuqur baholanishi lozim.

Janubiy Koreya 2008-yilda "Robot etikasi xartiyasi"ni ishlab chiqdi, ammo unda robotlar subyekt sifatida emas, balki axloqiy jihatdan muhofaza qilinadigan obyektlar sifatida ko'rib chiqiladi. Yaponiya esa "Robot qonunlari"ni ishlab chiqish borasida ishlar olib bormoqda, biroq ularda ham robotlar subyekt sifatida emas, balki xavfsizlik va sifat standartlari nuqtayi nazaridan tartibga solinadi.

Tadqiqot natijalari tahlili

Tadqiqot natijalarining tahlili shuni ko'rsatadiki, robotlarga subyekt maqomini berish masalasi bir qator murakkab huquqiy, texnologik va axloqiy muammolarni keltirib chiqaradi.

Huquqiy shaxs maqomi huquq va majburiyatlarning o'zaro bog'liqligini nazarda tutadi. Jumladan, qonun oldida javobgarlik majburiyatlarni bajarish qobiliyati va o'z harakatlari oqibatlarini anglashni talab qiladi. Hozirgi robotlar, hatto *Sophia* kabi ilg'or humanoid robotlar ham chinakam anglash va javobgarlikni his qilish qobiliyatiga ega emas. Ular zarar yetkazgan taqdirda, bu zarar uchun javobgarlikni kim olishi masalasi hozirgi kunda ochiq qolmoqda.

Qiziq tomoni shundaki, robotlarga cheklangan huquqiy maqom berish g'oyasi, asosan, ularning yaratuvchilari va ishlab chiqaruvchilariga javobgarlikdan qochish imkoniyatini berishi mumkin. Bryson va boshqa tadqiqotchilar bunday vaziyatni "qora tuynuk" (black box) deb atab, bu holat robotlardan foydalanishda javobgarlikning yo'qolishiga olib kelishi mumkinligini ta'kidlaydi [4].

Subyektlik maqomining asosida harakatlarni anglash va mustaqil qarorlar qabul

qilish jarayoni yotadi. *Vital* va *Sophia* kabi robotlar “sun’iy intellekt” deb atalsa-da, ular haqiqiy ongga ega emas. Coeckelbergh ta’kidlaganidek, hozirgi sun’iy intellekt tizimlari “kuchli AI” emas, balki ma’lum vazifalarni bajarish uchun dasturlangan “kuchsiz AI” hisoblanadi [5]. Texnologiyalar kunda-kunga rivojlanib borayotgan bo’lsa-da, hozirgi kunda iste’molda bo’lgan turli xildagi sun’iy intellekt vositalarini ushbu sohada tadqiqot olib borayotgan olimlar kuchsiz hisoblashadi. Ammo sun’iy intellektning rivojlanish bosqichi 2030-yilga yoki 2040-yilga borib, hozirgi holatga nisbatan tubdan farq qiladi. Ushbu holatda olimlar va amaliyotchilar tomonidan huquq sohasidagi bo’shliq qanday to’ldirilishi, tadqiqotlarning ommalashuvi va dolzarbligi yanada oshishi kutilmoqda.

Yaqin o’n yildagi tadqiqotlarda esa robot va sun’iy intellektning, jumladan, *Sophia* harakatlari, asosan, oldindan yozilgan skriptlarga asoslangani, uning “javoblari” esa markazlashtirilgan boshqaruv ostida ekanligini Parviainen va Coeckelbergh takrorlab o’tishgan. Bu robotning anglash va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatiga ega emasligini ko’rsatadi. Biroq texnologiya rivojlanishi bilan kelajakda chinakam anglash qobiliyatiga ega bo’lgan robotlar yaratilishi mumkinligi masalasini ham ko’rib chiqish lozim [5]. Pagallo ta’kidlaganidek, agar robotlar, haqiqatan ham, o’z-o’zini anglash va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatiga ega bo’lsa, huquq tizimi bu yangi realikka moslashishi kerak [10].

Robotlarga subyekt maqomi berilgan taqdirda, ularning harakatlari uchun javobgarlik masalasi muhim ahamiyatga ega. Quyidagi holatda robotlar uchun maxsus sug’urta tizimlari joriy etilishi ulardan keladigan zararlarni qoplash mexanizmini ta’minlaydi [11]. Yevropa Parlamentining “Civil Law Rules on Robotics” rezolutsiyasida ham robotlar uchun majburiy sug’urta va kompensatsiya fondi yaratish g’oyasi ilgari surilgan. Bu mexanizm robotlar tomonidan yetkazilgan zarar uchun javobgarlikni ta’minlash imkonini beradi.

Robotlarga subyekt maqomini berish masalasi yuridik paradigmalarning o’zgarishini talab qilishi mumkin. An’anaviy huquq tizimi, asosan, jismoniy va yuridik shaxslar uchun mo’ljallangan bo’lib, unda sun’iy intellekt va robotlar kabi yangi subyektlar ko’zda tutilmagan. Pagallo ta’kidlaganidek, robotlar huquqini tartibga solish uchun yangi huquqiy kategoriyalar va tushunchalar ishlab chiqish talab etilishi mumkin. Bu huquq tizimi evolyutsiyasi va yangi texnologik realikka moslashishini nazarda tutadi [3].

Tadqiqot natijalariga ko’ra, kelajakda robotlar va sun’iy intellekt tizimlarining huquqiy maqomini tartibga solish bo’yicha bir nechta yondashuvlar shakllanishi mumkin.

Birinchidan, cheklangan huquq subyekti yondashuvi asosida robotlarga ayrim huquqiy imkoniyatlar (masalan, ma’lum turdagi shartnomalar tuzish, mulkka egalik qilish yoki javobgarlikni sug’urtalash) bilan cheklangan subyekt maqomini berish mumkin.

Ikkinchidan, robotlar huquq subyekti sifatida emas, balki yuridik fiksiya sifatida tan olinishi mumkin. Bu yondashuv ularning texnik vosita sifatida huquqiy munosabatlarda ishtirok etishiga imkon yaratib, tartibga solish jarayonini soddalashtiradi.

Uchinchidan, robotlar uchun alohida huquqiy rejim yaratish mumkin. Bu yondashuv ularning o’ziga xos texnologik va funksional xususiyatlarini hisobga olgan holda, maxsus normativ-huquqiy mexanizmlar ishlab chiqishni nazarda tutadi.

To’rtinchidan, robotlar va sun’iy intellektni tartibga solishda axloqiy tamoyillar va etik me’yorlar asosiy rol o’ynashi mumkin. Bu yondashuv inson manfaatlari, xavfsizlik, shaffoflik va mas’uliyat kabi qadriyatlarni huquqiy tartibga solish tizimiga integratsiya qilishni nazarda tutadi.

Calo ta’kidlaganidek, robotlar huquqini tartibga solishda muvozanatli yondashuv zarur bo’lib, u, bir tomondan, innovatsiyalarni rag’batlantirish, boshqa tomondan esa potensial xavflarni kamaytirish imkonini beradi [12].

Xulosalar

Ushbu tadqiqotda *Vital* va *Sophia* kabi robotlarning subyekt maqomi masalasi tahlil qilindi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, hozirgi robotlar, qanchalik takomillashgan bo'lsin, hali chinakam subyekt maqomiga ega bo'lish uchun zarur bo'lgan huquq va majburiyatlarni anglash hamda bajarish qobiliyatiga ega emas. *Vital* robotining Deep Knowledge Ventures direktorlar kengashiga tayinlanishi va *Sophia* robotiga Saudiya Arabistoni tomonidan fuqarolik berilishi hodisalari ko'proq media e'tiborini jalb qilish hamda marketing harakatlari edi, ular haqiqiy huquq subyekti maqomini anglatmaydi.

Robotlarga subyekt maqomini berish masalasi murakkab bo'lib, u faqat huquqiy emas, balki texnologik, axloqiy va huquqiy masalalarni ham o'z ichiga oladi. Bu masala kelajakda yanada dolzarb bo'lishi mumkin, chunki

robotlar va sun'iy intellekt tizimlari tobora takomillashib, rivojlanib bormoqda.

Kelajakda robotlarning huquqiy maqomini tartibga solishda muvozanatli yondashuv zarur bo'lib, u innovatsiyalarni rag'batlantirish bilan birga, insonlar huquqlarini himoya qilish va potensial xavflarni kamaytirish imkonini berishi lozim. Bu esa yangi huquqiy paradigmalar, chegaralangan huquqiy maqom yoki maxsus huquqiy rejimlar orqali amalga oshirilishi mumkin.

Robotlarga to'liq subyekt maqomini berishdan oldin ularning chinakam ongga ega bo'lishi, harakatlarini anglashi va majburiyatlarni bajarish qobiliyatiga ega bo'lishi kabi asosiy masalalarni hal qilish zarur. Hozirgi holatda obyekt sifatida tartibga solinishi va ularning harakatlari uchun javobgarlik ularni yaratuvchilar, ishlab chiqaruvchilar yoki foydalanuvchilarga yuklatilishi maqsadga muvofiq.

REFERENCES

1. Solaiman S.M. Legal personality of robots, corporations, idols and chimpanzees: a quest for legitimacy. *Artificial Intelligence and Law*, 2016, vol. 25(2), pp. 155–179. DOI: 10.1007/s10506-016-9192-3.
2. Parviainen J., Coeckelbergh M. The political choreography of the Sophia robot: beyond robot rights and citizenship to political performances for the social robotics market. *AI & Society*, 2020, vol. 36(3), pp. 715–724. DOI: 10.1007/s00146-020-01104-w
3. Pagallo U. The laws of robots: Crimes, Contracts, and Torts. Springer Science & Business Media, 2013.
4. Bryson J., Diamantis M., Grant T.D. Of, for, and by the People: The Legal Lacuna of Synthetic Persons. *Artificial Intelligence & L.*, no. 25, p. 273. Available at: <https://ssrn.com/abstract=3068082>
5. Coeckelbergh M. AI ethics. MIT Publ., 2020.
6. Jaynes T.L. Legal personhood for artificial intelligence: citizenship as the exception to the rule. *AI & Society*, 2019, vol. 35(2), pp. 343–354. DOI: 10.1007/s00146-019-00897-9
7. Kurki V. Legal Personhood. *Cambridge University Press, Helsinki Legal Studies Research Paper*, 2023, no. 82, Available at: <https://ssrn.com/abstract=4669283>
8. Marshall B. No legal personhood for AI. *Patterns*, 2023, vol. 4(11), p. 100861. DOI: 10.1016/j.patter.2023.100861.
9. Negri S.M.C.A. Robot as legal person: Electronic personhood in robotics and Artificial intelligence. *Frontiers in Robotics and AI*, 2021, p. 8. DOI: 10.3389/frobt.2021.789327
10. Pagallo U. Vital, Sophia, and Co. — The quest for the legal personhood of robots. *Information*, 2018, vol. 9(9), p. 230. DOI: 10.3390/info9090230.
11. David C., Vladeck E. Machines Without Principals: Liability Rules and Artificial Intelligence. *WASH. L. REV.* 2014, vol. 89, p. 117.

12. Calo R. Robots in American Law. *University of Washington School of Law Research Paper*, 2016, no. 2016-04. Available at: <https://ssrn.com/abstract=2737598>
13. Gulyamov S., Rustambekov I., Narziev O., Xudayberganov A. Draft Concept of the Republic of Uzbekistan in the Field of Development Artificial Intelligence for 2021-2030. *Yurisprudensiya*, 2021, vol. 1, pp. 2–107. DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.1.1./qugt2226.
14. Europe Parliament. Civil Law Rules on Robotics. European Parliament resolution of 16 February 2017 with recommendations to the Commission on Civil Law Rules on Robotics. 2017.
15. Abdikhakimov I. Unraveling the copyright conundrum: Exploring AI-generated content and its implications for intellectual property rights. *International Conference on Legal Sciences*, 2023, vol. 1(5), pp. 18–32.
16. AllahRakha N. UNESCO's AI Ethics Principles: Challenges and Opportunities. *International Journal of Law and Policy*, 2024, vol. 2(9), pp. 24–36. DOI: 10.59022/ijlp.225.

YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК REVIEW OF LAW SCIENCES

Huquqiy ilmiy-amaliy jurnal
Правовой научно-практический журнал
Legal scientific-practical journal

2025-yil 2-son

VOLUME 9 / ISSUE 2 / 2025
DOI: 10.51788/TSUL.ROLS.2025.9.2.